



JADID BOBOLAR IZIDAN

Maxmudova Xafiza Samaritdinovna

Olmazor tumani 46-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'qituvchining o'quvchilarni jadid bobolarimizning ma'rifatparvarlik, vatanparvarlik va fidoyilik ruhida tarbiyalashdagi o'rni yoritiladi. Jadid namoyandalari hayoti hamda pedagogik qarashlari misolida yosh avlodni ilmga chanqoq, mustaqil fikrlaydigan va milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash zarurligi asoslab beriladi. Maqolada o'qituvchining shaxsiy namuna ko'rsatishi, zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanishi hamda jadidlar merosini ta'lim jarayoniga samarali integratsiya qilish masalalari tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Jadidlar, ma'rifatparvarlik, milliy uyg'onish, ta'lim islohoti, vatanparvarlik, pedagogik mahorat, mustaqil fikrlash, axloqiy tarbiya, zamonaviy metodlar, yoshlar tarbiyasi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini takomillashtirish, jamiyatimizda o'qituvchi va pedagog xodimlar, ilmiy va ijodkor ziyolilarga bo'lgan hurmat-e'tiborni yanada oshirish ustuvor masalaga aylandi. O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida jahon miqyosidagi raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta'lim tizimini yaratish va uni kompleks rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash maqsadlariga katta kuch va mablag'lar yo'naltirilmoqda.

Qariyb yuz yil avval mintaqamiz ijtimoiy-siyosiy manzarasi butkul o'zgacha, xalq hayoti og'ir, ilmsizlik haddan ziyod darajaga yetgan, mustamlakachilarning zulmi esa tobora ortib borardi. Ana shunday vaziyatda millatni uyg'otish, ozodlik va ilm yo'li bilan saodatga yetaklash maqsadini ko'zlagan fidoyilar maydonga chiqdi. Bugun ularni jadidlar deymiz.

Darhaqiqat, jadid bobolarimiz o'z davrining ilg'or fikrli, pok e'tiqodli, millatsevar insonlari bo'lishgan. Ularning hayot yo'li, faoliyati bugungi avlod uchun mayoqdir.

Bobolarimizning xizmatlari bugun tan olinmoqda, ular yaratgan adabiyot milliy madaniyatimizning muhim tarkibiy qismi sifatida o'rganilyapti. O'nlab kitoblar, turli asarlar nashr etilmoqda, ko'plab xayrli ishlar amalga oshirilmoqda. Zero, asrlar davomida hurfikr bobolar orzusi ham bugungi Yangi O'zbekiston misolidagi barqaror davlat, jips va ahil jamiyat bunyod etish edi.

Bugun dunyoda kechayotgan voqea-hodisalar xohlaymizmi-yo'qmi, bir asr oldingi saboqlarni eslashga, ulardan oqilona xulosa chiqarib, yo'l qo'yilgan xatolarni takrorlamaslikka undamoqda. Zero, Prezidentimiz Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomada alohida ta'kidlaganidek, bugungi dunyo hayoti har qachongidan ham murakkab, ziddiyatli, xavfli ko'rinish olgan.

Yer yuzidagi tabiiy boyliklar taqchillashib, insoniyat yashash aurasini tobora qisqarib borayotgan hozirgi sharoitda milliy mustaqillikni saqlash, dunyo bilan



tengma-teng munosabatda bo'lish, mamlakat hududiy yaxlitligi, iqtisodiy va mafkuraviy xavfsizligini asrash, jamiyat tinchligi va osoyishtaligini ta'minlash o'z-o'zidan bo'ladigan ishlar emasligini keng omma ongli tarzda tushunmog'i lozim.

O'z davrida dunyoning ilg'or davlatlaridan ko'p jihatdan ortda qolgan Turkiston xalqlarini bo'lajak fojialardan ogoh etish, jamiyat hayotini inqilobiy – zo'rlik yo'li bilan emas, balki tadrijiy – ma'rifiy yo'l bilan ijobiy tomonga o'zgartirish jadidchilik harakatining asosiy maqsadi, kurash usuli edi.

Jadidlar XIX asr oxiri – XX asr boshida musulmon modernist islohotchilari bo'lgan. Ular o'zini «taraqqiyparvar», «ziyoli» yoki faqat «Yoshlar» deb atagan kishilar edi. Jadidlar ta'lim sohasini isloh qilish hamda maktablarda «usul ul-jadid» yoki «yangi usul»ni tatbiq qilish va rivojlantirishga intilgan. Bu yo'lda ular imkoniyatida mavjud jamiki resurslar (iste'dodlari, shaxsiy mablag'lari, uy-joylari, siyosiy va madaniy institutlar, matbuot hamda teatr, ma'rifat uylari va hokazo)dan to'liq foydalandilar, hatto aziz umrlarini ham fido qilishdi. Avval chor hukumati, keyin sho'rolar davlati, ichki qora kuchlar – qadimchi va johil ulamolar tomonidan ko'rsatilgan zulm-zo'ravonliklar, tazyiqlar, quvg'inlar, suiqasdlarga qaramay, jadid bobolarimiz o'zlari tanlagan yo'ldan qaytmadilar.

Aslida «jadid» so'zining ma'nosi «yangi» demakdir. Lekin u shunchaki «yangi», «yangilik tarafdori» degani emas, balki «yangi tafakkur», «yangi inson, «yangi avlod» singari keng ma'nolarni o'zida mujassam etgan. Jadidchilik – davlat, tuzum, boshqaruvni isloh etish va millatni rivojlantirish orqali, umuman, jamiyatni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqishni maqsad qilib qo'ygan hamda aniq amaliy tadbirlarni o'zida mujassamlashtirgan g'oyalar tizimi. Bu tizim jahon sivilizatsiyasida nihoyatda katta rol o'ynagan Turkistondek bir tarixiy o'lkada sharqona hayot tarzini saqlagan holda uni G'arb va Yevropa taraqqiyoti natijalari bilan boyitishni ko'zlagan.

Jadidlar orasidan yetuk olimlar, sanoat va ziroatchilik sohalarining zamonaviy bilimdon mutaxassislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurti obod va Vatanni mustaqil ko'rishni orzu qilishdi, shu yo'lda fidoyilarcha kurashishdi. Jadidlarning Turkiston mustaqilligi uchun kurashida asosan quyidagi yo'nalishlar ustuvor edi: yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish; qobiliyatli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish; dunyoviy ilmlarni, zamonaviy fan va texnikani egallab, taraqqiy topgan millatlar darajasiga ko'tarilish; turli ma'rifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish; gazeta va jurnallar chop qilish, qoloqlikka qarshi ma'rifat bilan kurashish, ana shu asosda hurriyatga erishish, Vatanning buyuk sha'nu shavkatini tiklash jadid ta'limotining o'zak g'oyasi hisoblanadi.

XIX asrda ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan nom olgan va XX asr boshida rivojlangan jadidchilik harakatining taraqqiyparvar namoyondalari - Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, Munavvar Qori, Abdulla Avloniylar ijodi va faoliyatida yana ham kuchaydi. Jadidlar Turkistondagi xalqlarni birlashtirish va butun o'lkaning milliy mustaqilligi uchun kurash g'oyasini ilgari surdilar. Barkamol avlod tarbiyasida jadidlar faoliyatining muhim xususiyati shunda ediki, avvalambor, Turkistonni o'rta asrga xos



tarqoqlikdan ozod qilish, xalqni, millatni zamonaviy taraqqiyot yo'liga olib chiqish, milliy davlat bunyod etish, zamonaviy idora usulidagi ozod va farovon jamiyat qurish hamda ma'rifatparvarlik kabi masalalar edi.

Jadidchilik harakati vakillari yangi usul maktablarini tashkil etib, o'quvchilarga zamonaviy fanlarni o'rgatishni yo'lga qo'yidilar. Bu maktablarda o'qish va yozish bilan bir qatorda matematika, geografiya, tarix kabi dunyoviy fanlar ham o'qitildi. Dars jarayonida xarita, globus, darslik va ko'rgazmali vositalardan foydalanildi. Bu esa ta'lim sifatini oshirishga xizmat qildi.

Jadid harakatining yetakchi namoyandalaridan biri Mahmudxo'ja Behbudiy bo'lib, u yangi maktablar ochish, darsliklar yaratish va teatr san'atini rivojlantirish orqali xalqni ma'rifatga chorladi. Abdulla Avloniy esa pedagog sifatida yosh avlod tarbiyasiga alohida e'tibor qaratdi va o'z asarlarida axloqiy komillik g'oyalarini ilgari surdi. Abdurauf Fitrat milliy ong va mustaqillik g'oyalarini targ'ib etgan bo'lsa, Munavvarqori Abdurashidxonov yangi usul ta'limining rivojiga katta hissa qo'shdi. Cho'lpon esa o'z she'rlari va asarlarida erkinlik va millat taqdiri haqida chuqur fikr yuritdi.

Jadid bobolarimizning faoliyati o'quvchilar uchun katta ibrat maktabidir. Ular o'z hayotlarini xalq ravnaqi, ilm-fan taraqqiyoti va millat kelajagi uchun bag'ishladilar. Ko'plari ta'qib va zulmga uchragan bo'lsalar-da, o'z g'oyalaridan voz kechmadilar. Ularning jasorati, fidoyiligi va ma'rifatparvarlik ruhini bugungi yoshlar davom ettirishi lozim.

O'qituvchi dars jarayonida jadidlarning ana shu fidoyiligini, ularning hayot yo'lidagi mashaqqat va sinovlarini o'quvchilarga chuqur tushuntirishi kerak. Chunki jadidlar shunchaki tarixiy shaxslar emas, balki ibrat timsolidir. Ularning jasorati, qat'iyati va millat taqdiri uchun kuyinish tuyg'usi har bir yosh qalbida mas'uliyat hissini uyg'otadi.

O'quvchilarni jadidlarga o'xshashga undash, avvalo, ularni ilmga mehr qo'yishga da'vat etishdan boshlanadi. Jadidlar zamonaviy fanlarni o'rganishga, xorij tajribasini o'zlashtirishga intilganlar.

Bugungi kunda ham o'quvchi keng dunyoqarashli, innovatsion fikrlaydigan va yangilikka ochiq bo'lishi zarur. O'qituvchi esa o'z shaxsiy namunasida izlanuvchanlik va fidoyilikni ko'rsatishi lozim.

Shuningdek, jadidlar milliy qadriyat va ma'naviyatni asrashga katta e'tibor berganlar.

O'qituvchi yoshlarni milliy o'zlikni anglashga, ona tiliga hurmat bilan qarashga, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashi kerak. Bu jarayonda suhbat, bahs-munozara, sahnalashtirish va loyiha ishlari samarali natija beradi.

Xulosa qilib aytganda, jadid bobolarimizning hayoti va faoliyati yosh avlod uchun buyuk ibrat maktabidir.

O'qituvchi o'quvchilarni jadidlarga o'xshash – ilimli, ma'rifatparvar, vatanparvar va mas'uliyatli insonlar bo'lishga ruhlantirishi kerak. Zero, jadidlar orzu qilgan taraqqiy etgan jamiyatni barpo etish aynan bugungi yoshlar qo'lidadir.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jadidlar merosini o'rganish, anglash – ildizi baquvvat daraxtga aylanish imkonidir (uza.uz)// https://uza.uz/oz/posts/jadidlar-merosini-organish-anglash-ildizi-baquvvat-daraxtga-aylanishimkonidir_457334
2. Davlatxon Rustamova Toyirjon Qizi, Soliyeva Sarvinozxon Azizjon Qizi Pedagog faoliyatida jadid ma'rifatparvarlari merosini o'rganishning ahamiyati // SAI. 2024. №Special Issue 26.
3. Salohiy, M. Jadidchilik harakati: taraqqiyparvarlik asoslari va tarixiy saboqlar, O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti, Toshkent, 2020, 215 bet.
4. Qodirov, A. O'zbek jadidchiligi va uning tarixiy ildizlari, Fan, Toshkent, 2015, 180bet.
5. Abdulaxatov, A. Jadidlarning ma'rifiy faoliyati va ijtimoiy qarashlari, "Ijtimoiyfanlar"jurnali, 2018, №2, 45–52-betlar.
6. Mirvaliyev, S. Jadidlar merosi va zamonaviylik, "Tafakkur" jurnal, 2020, №4, 60–67-betlar.
7. Razzokov, B. XX asr boshlarida O'zbekiston jadidchilari faoliyati, O'zbekistontarixi instituti nashriyoti, Toshkent, 2019, 224 bet.